



**Ilmiy amaliy
jurnal
№ 2 (4)
2026**

**YANGI
O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTI**

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali 2-son 2026 yil*

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI

2

ISBN 978-9943-5256-3-4

Toshkent – 2026

MUNDARIJA

Аслонов С.М., Амиджанова М.М. Развитие бизнес-идей (стартапов) предпринимательской деятельности в Республике Таджикистан.....	7
Умаров И.Ю. Современные тенденции инновационного развития пищевой промышленности Узбекистана.....	13
Akbaraliyeva D., Mirzamahmudova M. Bank tizimi tarixi va rivojlanishi.....	16
Mamajonova N.A. Qurilish korxonalarida innovatsion boshqaruv faoliyati samaradorligini baholash ko‘rsatkichlari arxitekturasi.....	22
Ahmadkulov D.R., Xamrayev O.Y., Khattobov U.B. Kriptovalyutaga soliq solishda jahon tajirabasi va muammolar.....	25
Toshpulatov A.M. Qurilish materiallari sanoati korxonalarining ishlab chiqarish hajmini baholash usullari.....	30
Bahromov Sh.F. Jahonda to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning (TXXI) iqtisodiy rivojlanish bilan bog‘liqligini tahlili.....	34
Kalmuratov B., Izzetov B., Yusupova J., Shamuratova A. Calculation in econometric models of human capital financing in innovation management in Uzbekistan.....	39
Sultonov B.M. Oilaviy korxonalar faoliyatini boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmiga ta‘sir etuvchi omillar va ularni baholash asoslari.....	43
Юсупов М.Х. Фарғона вилояти маҳаллаларида ижтимоий омилларнинг иқтисодий барқарорликка таъсири: демография, гендер ва миграция таҳлили.....	47
Жаббаров К.Й., Жалолов И.Х., Эркинов М.Д. Молиявий ҳисобот тизимининг моҳияти ва шаклланиш босқичлари.....	57
Гулямова Н.Х. Саноат корхоналарини инновацион ривожланиши ва миллий иқтисодиёт ўсиши.....	61
Arziboyeva R.S. Banklarda asosiy vositalar va mablag‘lar hisobini takomillashtirish.....	64
To‘raboyev Q.Q. Raqamli iqtisodiyot sharoitida mamlakatimizda soliq tizimini modernizatsiya qilish va sun‘iy intellekt hamda Big Data yordamida nazorat.....	67
Tojiboyev I.I. Raqamli biznes va elektron tijoratni soliqqa tortishning dolzarb masalalari va yechimlari.....	70
Xolmirzayev I.O. Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari faoliyatining rivojlantirishning iqtisodiy yo‘llari.....	74
Saidova M.J. Sanoat tarmoqlari transformatsiyasi sharoitida texnologik eskirish va modernizatsiya muammolari.....	79
Usmonova N.A. Andijon viloyatida kichik korxonalar faoliyat samaradorligiga ta‘sir etuvchi omillarni statistik va ekonometrik tahlil qilish.....	83
Xaydarov M.T., Jannazarova G.K. Bozor infrastrukturasi va uning rivojlanish istiqbollari.....	87
Худайназарова Д.Г. Фармацевтика корхоналарида харажатларга доир ахборотларни бухгалтерия ҳисоботларида очиб бериш тартибини такомиллаштириш.....	93
Madaminov A.M. O‘zbekistonda sanoat tarmoqlari faoliyatida oziq-ovqat sanoati rivojlantirish istiqbollari.....	99
Zufarova G.A. Kambag‘al va ishsiz fuqarolarni tadbirkorlikka jalb qilish masalalari.....	103
Ergashev I.I. Kichik korxonalar investitsiyaviy jozibadorligini samarali boshqarishda jahon amaliyoti tajribasi.....	106
Sativaldiyeva G.X. Ijara munosabatlarini mohiyati, ahamiyati va tasniflanishi.....	110
Kamilova A.N. Sanoat korxonalarida mehnat unumdorligini oshirishda mehnatni normalashtirish tizimining o‘rni va ahamiyati.....	115
Базарова Г.Г. Занятость населения в Узбекистане – теоретико-методологические основы анализа и практические механизмы решения проблем.....	119
Turabov B.T. Byudjet taqchilligi va xalqaro moliyaviy oqimlarning ta‘siri.....	125
Xamzaev A.N. Mamlakatimizda kapital bozorini rivojlantirish yo‘llari.....	131
Xamzaev A.N., Mirzajonov M. Mamlakatimizdagi xususiy korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish yo‘llari.....	136

Raximova L.Sh. Innovatsion iqtisodiyot sharoitida ayollar tadbirkorligining roli va uning turmush farovonligiga ta'siri.....	141
Nosirov S.N. ESG tamoyillarini joriy etish orqali sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini oshirish mexanizmlari.....	146
Maxkamov X.M. Tijorat banklarida muammoli kreditlar ulushini kamaytirishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish.....	150
Hamrakulova M.F. Sanoat korxonalarida innovatsion boshqaruv mexanizmlarining mahsulot sifati va bozor raqobatbardoshligiga ta'siri.....	153
Mirzayeva L.S. O'zbekiston qimmatli qog'ozlar bozoridagi aksiyalar likvidligini oshirish yo'llari.....	157
Очилов Ж.Ж. Инновацион ривожланишда кичик бизнес фаолияти экотизимининг роли..	160
Usubjonov Z.V. Qurilish materiallari bozori mohiyati va uning xususiyatlari.....	165
Bekmurodov N.X. Hududiy iqtisodiy rivojlanishning nazariy asoslari va konsepsiyalari.....	170
Yusupova M.B. Zamonaviy boshqaruv tizimi va strategik boshqaruv hisobi.....	175
Xudayberdiyev O.A. Globallashuv sharoitida elektron tijorat orqali tadbirkorlik subyektlarining xalqaro savdo munosabatlarini rivojlantirish mexanizmlari.....	179
Bo'stonova N.A. Andijon viloyatida kichik biznes subyektlarining salohiyatini tahlili.....	187
Bo'stonova N.A., Nematjonova R.D. O'zbekistonda aholining daromadlari va iste'mol xarajatlarining biznes rivojlanishiga ta'siri.....	192
Hamidova Sh.O. Sanoat korxonalarida mehnatni tashkil etish va boshqarish samaradorligi tahlili.	196
Abdullayeva Z.S. Maxsus iqtisodiy zonalar faoliyatining ijtimoiy va institutsional samaradorligi.	199
Duvshatova N.K. Hududlararo iqtisodiy nomutanosiblikni tartibga solishda investitsion yondashuvlarning samaradorligi.....	203
Усманова А.Б. Цифровая составляющая устойчивого развития региональной туристской системы (на примере Бухарской области).....	207
Qidirniyozov A.Sh. Uy-joy qurilishida kapital qo'yilmalar hajmi va yakuniy natijalar o'rtasidagi bog'liqlikni ekonometrik modellashtirish.....	213
Dexkanova Sh.K. Aylanma iqtisodiyotning barqaror rivojlanishdagi ro'li.....	217
Gulimboyev S.I., Rejapov X.X. Aholining farovonligini ta'minlashda ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning o'rni.....	221
Mamatov B.S. O'zbekistonning investitsion imkoniyatlari: asosiy tendensiya va natijalar.....	226
Kamoldinova N.A. Ayollar tadbirkorligini rivojlantirish – ular bandligini ta'minlashning asosi.	231
Aminboyev J.O. Amortizatsiya hisobida foydali xizmat muddatini aniqlash: nazariy va amaliy yondashuvlar.....	235
Maxramova N.Y. Strategik menejmentda kadriyatlar zanjiri: raqobatbardoshlikni oshirishning konseptual asoslari.....	241
Usmanova S.S. Innovative development of the pharmaceutical industry.....	245
Faxriddinova N.N. Yashil tadbirkorlik va uning iqtisodiyotdagi o'rni.....	250
Захирова Г. Тиббий туризм хизматлари бозори ривожланишининг хориж тажрибаси.....	254
Абдуллоев А.Ж. Барқарор ривожланиш стратегияси асосида минтакавий саноатлашувни амалга оширишнинг хорижий мамлакатлар амалиёти.....	258
Sharapova N.K. Hududlarni barqaror rivojlantirish dasturlarini xalqaro standartlar tizimiga moslashtirish imkoniyatlari.....	264
Rahmatullayeva D.O. Demografik omillar va bandlik samaradorligi o'rtasidagi munosabatlar..	272

Shu asosda quyidagi takliflar ilgari suriladi: birinchidan, MIZlar samaradorligini baholash uchun ijtimoiy va institutsional ko‘rsatkichlarni qamrab olgan integrallashgan baholash tizimini joriy etish; ikkinchidan, boshqaruv jarayonlarini raqamlashtirish orqali shaffoflikni oshirish; uchinchidan, hududiy mehnat bozorini rivojlantirish va mahalliy kadrlar salohiyatini mustahkamlash; to‘rtinchidan, davlat qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini natijadorlik tamoyili asosida takomillashtirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. World Bank. (2023). *Special Economic Zones: An Operational Review of Their Impacts*. Washington, DC.
2. OECD. (2022). *Special Economic Zones and Institutional Quality*. Paris.
3. UNCTAD. (2021). *World Investment Report 2021: Investing in Sustainable Recovery*. Geneva.
4. Farole, T., & Akinci, G. (2022). *Special Economic Zones: Progress, Emerging Challenges and Future Directions*. World Bank Publications.

UDK:332

**HUDUDLARARO IQTISODIY NOMUTANOSIBLIKNI TARTIBGA SOLISHDA
INVESTITSION YONDASHUVLARNING SAMARADORLIGI**

**ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИНВЕСТИЦИОННЫХ ПОДХОДОВ В РЕГУЛИРОВАНИИ
МЕЖРЕГИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ДИСПРОПОРЦИИ.**

**THE EFFECTIVENESS OF INVESTMENT APPROACHES IN ADDRESSING
INTERREGIONAL ECONOMIC DISPARITIES.**

Duvshatova N.K. Abu Rayhon Beruniy nomidagi
Urganch davlat universiteti 2-bosqich magistranti

Annotatsiya

Mazkur maqolada hududlararo iqtisodiy nomutanosiblikni tartibga solishda investitsion yondashuvlarning samaradorligi tahlil qilinadi. Hududlar kesimida investitsiya oqimlari, iqtisodiy o‘shish va bandlik ko‘rsatkichlari asosida nomutanosiblik darajasi baholanadi. Investitsion siyosatning maqsadli va differensial yondashuvlari hududiy rivojlanishga ta’siri aniqlanadi hamda resurslarni oqilona taqsimlash bo‘yicha ilmiy takliflar ishlab chiqiladi.

Kalit so‘zlar: hududlararo iqtisodiy nomutanosiblik, investitsion yondashuvlar, hududiy rivojlanish, investitsiya siyosati, iqtisodiy tafovutlar, barqaror iqtisodiy o‘shish, mintaqaviy iqtisodiyot, investitsiya samaradorligi.

В данной статье анализируется эффективность инвестиционных подходов в регулировании межрегиональной экономической диспропорции. На основе показателей инвестиционных потоков, экономического роста и занятости по регионам оценивается уровень межрегиональных различий. Определяется влияние целевых и дифференцированных инвестиционных подходов на региональное развитие, а также разрабатываются научные предложения по рациональному распределению инвестиционных ресурсов.

Ключевые слова: межрегиональная экономическая диспропорция, инвестиционные подходы, региональное развитие, инвестиционная политика, экономические различия, устойчивый экономический рост, региональная экономика, эффективность инвестиций.

This article analyzes the effectiveness of investment approaches in regulating interregional economic disparities. The level of regional inequality is assessed based on indicators such as

investment flows, economic growth, and employment across regions. The impact of targeted and differentiated investment approaches on regional development is identified, and scientific recommendations for the rational allocation of investment resources are proposed.

Keywords: interregional economic disparities, investment approaches, regional development, investment policy, economic inequality, sustainable economic growth, regional economy, investment efficiency.

So‘nggi yillarda hududlararo iqtisodiy nomutanosiblik masalasi global va milliy darajada dolzarb muammolardan biriga aylangan. Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, iqtisodiy o‘shish jarayonlari ko‘pincha hududlar kesimida notekis shakllanadi va bu resurslar taqsimoti, investitsiya oqimlari hamda infratuzilma rivoji bilan bevosita bog‘liqdir [1]. Mintaqalar o‘rtasidagi yalpi hududiy mahsulot, daromadlar va bandlik darajasidagi tafovutlar barqaror rivojlanishga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin [2]. Shu sababli investitsion siyosatni hududiy xususiyatlarni inobatga olgan holda shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ilmiy tadqiqotlarda investitsiya oqimlarining hududiy iqtisodiy o‘shishga ta‘siri, ayniqsa, differensial va maqsadli yondashuvlar orqali nomutanosiblikni kamaytirish imkoniyatlari keng o‘rganilmoqda [3]. Yangi iqtisodiy geografiya nazariyasi hududiy rivojlanishda kapitalning konsentratsiyasi va aglomeratsiya omillarining rolini asoslab beradi [4]. Shu bilan birga, investitsion resurslarni samarali va muvozanatli taqsimlash mexanizmlarini takomillashtirish hududlararo tafovutlarni qisqartirishning muhim sharti sifatida qaraladi [5].

Mazkur maqolada hududlararo iqtisodiy nomutanosiblikni tartibga solishda investitsion yondashuvlarning samaradorligi nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi hamda hududiy rivojlanishni muvozanatlashtirish bo‘yicha ilmiy takliflar ishlab chiqiladi.

Hududlararo iqtisodiy nomutanosiblikni tartibga solishda investitsion yondashuvlarning samaradorligini baholash uchun hududlar kesimida investitsiya hajmi, yalpi hududiy mahsulot (YaHM), bandlik darajasi va aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromad ko‘rsatkichlari o‘zaro bog‘liqlikda tahlil qilindi. Tadqiqotda so‘nggi besh yillik dinamik ma‘lumotlar asosida hududiy tafovutlarning o‘zgarish tendensiyasi o‘rganildi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, investitsiya oqimlari hududlar kesimida bir xil taqsimlanmagan. Nisbatan rivojlangan hududlarda kapital qo‘shilmalar hajmi yuqori bo‘lib, bu yerda infratuzilma, sanoat salohiyati va logistika imkoniyatlari yaxshi shakllangan. Natijada investitsiyalar iqtisodiy o‘shishni tezlashtiruvchi omil sifatida namoyon bo‘ladi. Aksincha, iqtisodiy salohiyati past hududlarda investitsiya hajmining kamligi ishlab chiqarishning sust rivojlanishiga va bandlik ko‘rsatkichlarining pastligiga olib keladi.

Investitsiya va YaHM o‘rtasidagi korrelyatsion bog‘liqlik ijobiy xarakterga ega bo‘lib, investitsiya hajmining oshishi iqtisodiy o‘shish sur‘atlarining ortishiga xizmat qilgan. Shu bilan birga, investitsiyaning samaradorligi hududning iqtisodiy tarkibiga, infratuzilma darajasiga va institutsional muhitga bevosita bog‘liq ekanligi aniqlandi. Bu holat investitsion yondashuvlarni differensial asosda shakllantirish zaruratini ko‘rsatadi.

Hududlararo nomutanosiblik darajasini baholashda variatsiya koeffitsiyenti va nisbat ko‘rsatkichlaridan foydalanildi. Hisob-kitob natijalari investitsiya taqsimotidagi tafovutlar YaHM va bandlikdagi farqlarga sezilarli ta‘sir ko‘rsatishini tasdiqladi. Xususan, investitsiya hajmi yuqori bo‘lgan hududlarda o‘rtacha YaHM o‘shish sur‘ati 1,3–1,5 baravar yuqori kuzatilgan.

Hududiy rivojlanish jarayonida investitsiya oqimlarining iqtisodiy o‘shish va bandlik ko‘rsatkichlariga ta‘sirini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, asosiy kapitalga yo‘naltirilgan investitsiyalar hajmi va ularning hududiy taqsimoti iqtisodiy faollik darajasini belgilovchi omillardan biridir. Shu nuqtai nazardan, investitsiya hamda makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni statistik jihatdan ko‘rib chiqish zarur hisoblanadi.

Quyidagi jadvalda hududlar kesimida investitsiya va iqtisodiy ko‘rsatkichlarning o‘zaro uyg‘unligi keltirilgan (1-jadval).

O‘zbekiston hududlari kesimida investitsiya va iqtisodiy ko‘rsatkichlar o‘zaro bog‘liqligi [1]

Hudud guruhi	Asosiy kapitalga investitsiyalar (trln so‘m)	YaHM o‘shish sur‘ati (%)	Bandlik o‘shishi (%)	Aholi jon boshiga investitsiya (mln so‘m)
Yuqori rivojlangan hududlar (Toshkent sh., Navoiy vil.)	92,6	7,4	4,1	21,8
O‘rta rivojlangan hududlar (Samarqand, Farg‘ona, Andijon vil.)	63,3	6,2	3,2	14,7
Nisbatan past rivojlangan hududlar (Qoraqalpog‘iston R., Surxondaryo, Jizzax vil.)	38,9	4,6	2,0	9,5

2024-yil ma’lumotlari O‘zbekistonda investitsiya oqimlarining hududlar kesimida notekis taqsimlanayotganini ko‘rsatadi. Yuqori rivojlangan hududlarda asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi 92,6 trln so‘mni tashkil etib, YaHM o‘shish sur‘ati 7,4 % ga yetgan. Aholi jon boshiga investitsiya miqdorining 21,8 mln so‘mni tashkil etishi investitsion resurslarning konsentratsiyasini tasdiqlaydi.

O‘rta rivojlangan hududlarda investitsiya hajmi 1,5 baravar past bo‘lib, iqtisodiy o‘shish sur‘ati ham mos ravishda 6,2 % ni tashkil etgan. Nisbatan past rivojlangan hududlarda esa investitsiya hajmi yuqori hududlarga nisbatan qariyb 2,4 baravar kam bo‘lib, iqtisodiy o‘shish sur‘ati 4,6 % darajasida shakllangan.

Mazkur holat investitsion yondashuvlarni differensial asosda takomillashtirish zarurligini hamda hududlararo nomutanosiblikni kamaytirishda maqsadli investitsiya siyosatini kuchaytirish lozimligini ko‘rsatadi.

Investitsion yondashuvlar samaradorligini tahlil qilishda uchta asosiy model ko‘rib chiqildi: markazlashgan investitsiya siyosati, differensial (hududiy ustuvorlikka asoslangan) yondashuv va rag‘batlantiruvchi (soliq va kredit imtiyozlari asosidagi) yondashuv.

Markazlashgan modelda investitsiyalar asosan iqtisodiy salohiyati yuqori hududlarga yo‘naltiriladi. Bu qisqa muddatda umumiy iqtisodiy o‘shishni ta‘minlaydi, biroq uzoq muddatda hududlararo tafovutlarni kuchaytirishi mumkin. Differensial yondashuv esa investitsiya resurslarini iqtisodiy jihatdan sust rivojlangan hududlarga ko‘proq yo‘naltirishni nazarda tutadi. Bu model ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash va hududiy tafovutlarni qisqartirishga xizmat qiladi. Rag‘batlantiruvchi yondashuv esa xususiy investitsiyalarni jalb qilish orqali iqtisodiy faollikni oshirishni ko‘zlaydi.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, differensial va rag‘batlantiruvchi yondashuvlarning kombinatsiyasi eng yuqori natija bergan. Bunda infratuzilma rivojiga ustuvor investitsiyalar kiritish, kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash va soliq imtiyozlari orqali investitsiya muhitini yaxshilash hududiy o‘shish sur‘atlarini tezlashtirgan.

Hududlararo tafovutlarning dinamikasini grafik ko‘rinishda ifodalash investitsiya siyosati samaradorligini yanada aniqroq ko‘rsatadi (1-rasm).



1-rasm. Investitsiya hajmi va hududiy iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlik [2]

Yuqoridagi rasmda O'zbekiston hududlari misolida investitsiya hajmi va hududiy iqtisodiy o'sish o'rtasidagi ijobiy bog'liqlik grafik ko'rinishda tasvirlangan. Gorizontaal o'qda investitsiya darajasi, vertikal o'qda esa iqtisodiy o'sish sur'ati ifodalangan bo'lib, egri chiziq yuqoriga ko'tarilib boruvchi tendensiyani ko'rsatadi. Bu investitsiya hajmi oshgani sari hududiy iqtisodiy o'sish sur'atlari ham ortishini anglatadi.

Grafikda uchta hududiy guruh ajratilgan. Past investitsiya va past o'sish zonasi sifatida Qoraqalpog'iston Respublikasi hamda Jizzax viloyati ko'rsatilgan. Ushbu hududlarda investitsiya faolligining nisbatan sustligi ishlab chiqarish hajmi va bandlik o'sishining cheklanganligiga olib kelayotganini anglash mumkin. O'rta investitsiya darajasiga ega bo'lgan Farg'ona va Samarqand viloyatlari grafikda o'rta nuqtada joylashgan bo'lib, bu hududlarda iqtisodiy o'sish sur'atlari ham o'rtacha darajada shakllanayotganini bildiradi.

Eng yuqori nuqta Toshkent shahri va Navoiy viloyatiga to'g'ri keladi. Bu hududlarda investitsiya hajmi yuqori bo'lib, sanoat, xizmatlar va infratuzilma rivoji iqtisodiy o'sish sur'atlarini tezlashtirmoqda. Grafikdagi yuqoriga yo'nalgan o'q investitsiyaning multiplikativ ta'sirini ifodalaydi, ya'ni kapital qo'yilmalar ko'paygani sari iqtisodiy faollik, bandlik va daromadlar oshadi.

Ushbu tahliliy rasm investitsion yondashuvlarning hududiy iqtisodiy rivojlanishga bevosita ta'sirini tasdiqlaydi hamda investitsiyalarni differensial va maqsadli taqsimlash orqali hududlararo nomutanosiblikni kamaytirish mumkinligini ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda hududlararo iqtisodiy nomutanosiblik investitsiya resurslarining notekis taqsimlanishi bilan chambarchas bog'liq. Investitsiya hajmi yuqori bo'lgan hududlarda yalpi hududiy mahsulot o'sish sur'atlari va bandlik darajasi nisbatan yuqori shakllangan. Aksincha, investitsiya faolligi past hududlarda iqtisodiy o'sish sust kechmoqda. Bu investitsion yondashuvlarning hududiy rivojlanishga bevosita va multiplikativ ta'sirini tasdiqlaydi.

Tahlillar asosida quyidagi takliflar ilgari suriladi. Birinchidan, investitsion siyosatni differensial asosda takomillashtirish, ya'ni iqtisodiy salohiyati past hududlarga maqsadli investitsiyalarni ko'paytirish zarur. Ikkinchidan, transport, energetika va sanoat infratuzilmasini rivojlantirish orqali hududiy investitsion jozibadorlikni oshirish lozim. Uchinchidan, investitsiya samaradorligini baholashning yagona integral ko'rsatkichini joriy etish resurslardan foydalanish natijadorligini nazorat qilish imkonini beradi. To'rtinchidan, xususiy sektorni rag'batlantirish va davlat-xususiy sheriklik asosidagi loyihalarni kengaytirish hududiy iqtisodiy faollikni kuchaytiradi. Investitsion yondashuvlarni ilmiy asosda takomillashtirish hududlararo tafovutlarni qisqartirish va barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. World Bank. *World Development Report 2022: Finance for an Equitable Recovery*. Washington, DC, 2022.
2. OECD. *Regional Outlook 2023: Bridging Regional Disparities*. Paris, 2023.
3. Rodríguez-Pose A. *The Role of Investment in Regional Development*. Regional Studies, 2021.
4. Krugman P. *Geography and Trade Revisited*. Economic Geography Review, 2022.
5. UNDP. *Regional Inequality and Sustainable Development Report*. New York, 2024.

УДК:338.48

**ЦИФРОВАЯ СОСТАВЛЯЮЩАЯ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ РЕГИОНАЛЬНОЙ
ТУРИСТСКОЙ СИСТЕМЫ (НА ПРИМЕРЕ БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ)**

**MINTAQAVIY TURIZM TIZIMINING BARQAROR RIVOJLANISHINI RAQAMLI
KOMPONENTI (BUXORO VILOYATI MISOLIDAN)**

**DIGITAL COMPONENT OF SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF THE REGIONAL
TOURISM SYSTEM (ON THE EXAMPLE OF THE BUKHARA REGION)**

Усманова Азиза Баходировна

Старший преподаватель, д.ф.э.н. (PhD) кафедры «Экономика»
Бухарского государственного университета

Аннотация

В статье рассматриваются теоретико-методологические и прикладные аспекты формирования цифровой составляющей устойчивого развития региональной туристской системы. Актуальность исследования обусловлена необходимостью перехода туристской отрасли Узбекистана к модели устойчивого и цифрового развития в условиях реализации социально-экономических реформ. На основе статистических данных и материалов Управления туризма Бухарской области проведён анализ текущего уровня цифровизации туристской инфраструктуры региона. В рамках исследования предложена авторская SDT-модель устойчиво-цифрового развития туристской системы, интегрированная с цифровым мультипликатором, позволяющим количественно оценить влияние цифровых факторов на экономические результаты туристской деятельности.

Ключевые слова: устойчивое развитие, цифровизация туризма, региональная туристская система, SDT-модель, цифровой мультипликатор, Бухарская область.

Ushbu maqolada mintaqaviy turizm tizimining barqaror rivojlanishi uchun raqamli komponentni ishlab chiqishning nazariy, metodologik va amaliy jihatlari ko‘rib chiqiladi. Tadqiqotning dolzarbligi ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish sharoitida O‘zbekiston turizm sanoatining barqaror va raqamli rivojlanish modeliga o‘tish zaruratidan kelib chiqadi. Buxoro viloyati turizm boshqarmasining statistik ma'lumotlari va materiallaridan foydalangan holda, mintaqaviy turizm infratuzilmasini raqamlashtirishning hozirgi darajasi tahlil qilinadi. Tadqiqotda turizm tizimining barqaror raqamli rivojlanishi uchun raqamli multiplikator bilan integratsiyalashgan, raqamli omillarning turizmning iqtisodiy ko‘rsatkichlariga ta'sirini miqdoriy baholash imkonini beruvchi xususiy SDG modeli taklif etiladi.

Kalit so‘zlar: barqaror rivojlanish, turizmni raqamlashtirish, mintaqaviy turizm tizimi, SDG modeli, raqamli multiplikator, Buxoro viloyati.

This article examines the theoretical, methodological, and applied aspects of developing a digital component for the sustainable development of a regional tourism system. The relevance of the